



OQ ZOTSIZ SICHQONLARNING 30 KUNLIK SURUNKALI ALKOGOL INTOKSIKATSIYASIDA ME'DA DEVORINING MORFOLOGIK, MORFOMETRIK KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH VA QIYOSLASH.

Rajabboyeva Shaxlo

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti Biologiya talim yonalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Dunyo miqyosida alkgolning iste'mol qilinishi oqibatida har yili 3 milliongacha o'lim holatlari qayd etiladi. Alkgol iste'moli butun dunyoda erta o'limning yetakchi omillaridan biri hisoblanadi, bunda alkgol iste'moli 20-24 yoshdagi shaxslar orasida har to'rtinchi o'limga sabab bo'lmoqda. Ko'psonli o'tkazilgan tadqiqotlar etanolning inson organizmiga, shu jumladan parenximatoz a'zolarga salbiy ta'sirini tasdiqlagan, bundan tashqari alkogol ta'siri ostida turli a'zolar va to'qimalarda strukturaviy o'zgarishlar ro'y berishi tavsiflangan. Surunkali alkogol intoksikatsiyasining ta'sirini aniqlash bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar o'tkazilgan, biroq mazkur holatning me'daning tajribada morfofunktsional holatini o'rganish hozirga qadar yetarli emas.*

Bizni mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini mukammallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar orasida kasalliklarni erta tashxislanishiga, shu jumladan, surunkali alkogol intoksikatsiya, uni asoratlarini kamaytirish va oldini olish bilan bog'liq holatlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabatdan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasining 7 ustuvor yo'nalishlarining 56 maqsadida "...Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini saqlash va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish dasturini 2022-



2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish”¹ bo'yicha maqsadlar belgilangan.

Kalit sozlar: 296 ta uch, olti, to'qqiz va o'n ikki oylik oq zotsiz sichqonlar bo'ldi.

Аннотация: В мировом масштабе потребление алкоголя обуславливает почти 3 млн. смертей ежегодно. Потребление алкоголя является одним из ведущих факторов риска преждевременной смертности во всем мире, где потребление алкоголя служит причиной каждой четвертой смерти среди взрослых в возрасте 20-24 лет. Проведены многочисленные экспериментальные исследования, доказывающее отрицательное влияние этанола на организм человека, в том числе на паренхиматозные органы, кроме того описаны структурные изменения органов и тканей под влиянием алкоголя. Проведены исследования по определению влияния хронической алкогольной интоксикации на разные органы и ткани в эксперименте, но влияние данного состояния на морфофункциональное состояние желудка в эксперименте до сих пор изучена недостаточно.

В нашей стране среди широкомасштабных мер, осуществляемых по совершенствованию системы здравоохранения уделяется особое внимание ранней диагностике заболеваний, в том числе связанных с хронической алкогольной интоксикацией, снижению их осложнений и профилактике. В связи с этим в 5-й сессии 4-й части 7 приоритетных направлений Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы поставлены цели для «...выполнения комплекса мер, направленных на осуществление программы по охране здоровья населения, повышению потенциала медицинских работников и развитию системы здравоохранения, предназначенный на 2022-2023 годы»²

».



Ключевые слова; явились трех, шести, девяти и двенадцати месячные 296 белых беспородных крыс.

Kirish

Hayvonlarning so'yilishi mos muddatlarda tonggi soatlarda, эфир наркози ostida bir lahzali dekapitatsiya yo'li bilan bajarildi. Barcha hayvonlarda navbatma navbat old ko'krak devori va qorin bo'shlig'ini odatiy seksion olib tashlanishi va ichki holati suratga olib turildi. Shundan so'ng, an'anaviy anatomik preparatsiya amalga oshirildi, bunda me'da qorin bo'shlig'idan olindi. Me'daning morfologik va morfometrik o'rganilishi uchun uning bezsiz va bezli qismlaridan bo'lakchalar olindi. To'qimalar bo'laklari 10%li neytral formalinga solindi. Zaruriy ishlov berilganidan so'ng, materialga parafin quyildi va 4-6 mkm qalinlikdagi qirqimlar tayyorlandi, ular gematoksilin va eozin bilan bo'yaldi. Qirqimlar DN-107T/ NLCD-307B Model (Novel, Kitay) okulyar-mikrometri yordamida morfometrik o'rganilib, me'daning shilliq qavati, shilliq osti qavati, mushak va seroz qobiqlari qalinligi o'lchandi, qirqimning axborot maydonlari suratga olindi va ishlov berildi. Me'daning o'rganilayotgan bo'limlaridagi o'zgarishlarning umumiy morfologik manzarasi gematoksilin-eozin, Van-Gizon bo'yicha bo'yali o'rganildi.

Immunhistologik vositalar Ventana Bench Mark XT (Shveysariya) avtosteynerida tayyorlandi. Jarayonlarning gistotopografiyasini o'rganish uchun CD68 va BCL2 larga poliklonal antitanalari qo'llanildi, bunda 1:100 eritildi, adgeziv qoplamali gistologik shishalarda bajarildi (Ventana, Shveysariya). Immunhistokimyoviy reaksiyalar antitanalar ishlab chiqaruvchisining bayonnomasiga muvofiq o'tkazildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tadqiqotlar metodologiyasi

3 oylik sichqonlarda bezsiz bo'limidagi me'da shilliq qavati shaxsiy plastinkasi qalinligi kattalashadi va o'rtacha $145,2 \pm 1,6$ mkm, 12 oylik yoshda esa $164,1 \pm 1,6$ mkm ni tashkil qilgan. Bezli bo'limida bu yoshdagi sichqonlarda me'da shilliq qavati shaxsiy



plastinkasi qalinligi oʻrtacha $252,2 \pm 3,4$ mkm, 12 oylik boʻlgan hayvonlarda oʻrtacha $258,3 \pm 1,1$ mkm ga teng boʻlgan. 3 oylik sichqonlarda bezsioʻ boʻlimdagi shilliq qavat shaxsiy plastinkasi nazorat guruhiga nisbatan 16%ga kattalashgan, bezli boʻlimi esa 14%ga kattalashgan. 12 oylik tajriba hayvonini bezsiz yuoʻlimi shilliq qavatidagi shaxsiy plastinkasi 14%ga, bezsiz boʻlimi 13%ga kattalashgan.

3 oylik yoshda bezsiz boʻlimda shilliq qavatning mushak plastinkasi kattalashib, oʻrtacha $37,8 \pm 1,0$ mkm ni tashkil qilgan. 12 oylik sichqonlarda esa $41,0 \pm 1,3$ mkm ga toʻgʻri kelgan. 3 oylik yoshdagi sichqonlarni meʼdasini bezsiz boʻlimida mushak plastinkasi kattalashib, oʻrtacha $37,5 \pm 0,7$ mkm ni tashkil qildi. 12 oylik yoshda esa mushak plastinkasi oʻrtacha $41,3 \pm 1,0$ mkm ni tashkil qildi. Nazorat guruhi koʻrsatkichlari bilan solishtirishda, 3 oylik yoshdagi bezsiz boʻlimdagi shilliq qavatning mushak plastinkalari 17%ga, bezli boʻlimda esa 20%ga kattalashgani maʼlum boʻldi. 12 oylik yoshda meʼdaning bezsiz boʻlimida shilliq qavatning mushak plastinkasi 18%ga, bezli boʻlimda esa 24%ga kattalashgani aniqlandi.

Muhokama va natijalar

Surunkali alkohol intoksikatsiyada meʼda morfofunktsional oʻziga xosligi va uning oʻzgarishlar boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Sichqonlar meʼdalarining postnatal ontogeneza tuzilishi va rivojlanishi qonuniyatlari” uslubiy qoʻllanmalari tasdiqlandi (Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash Vazirligini 21.06.2022y.dagi 8n-r/697-son hulosasi). Mazkur uslubiy qoʻllanmalar surunkali alkohol intoksikatsiyada meʼdadagi morfologik oʻzgarishlarni aniqlash, tizimli ravishda ni oʻz vaqtida davolash va asoratlarini oldini olish tartibini tashkil qilish imkonini bergan;

Surunkali alkohol intoksikatsiyasida meʼdaning morfofunktsional oʻziga xosliklari boʻyicha olingan ilmiy natijalar Romiton va Buxoro tuman tibbiyot muassasalarining tibbiyot amaliyotiga joriy qilindi (Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash



Vazirligini 06.07.2022 y.dagi 8n-z/358-son hulosasi). Tadqiqotda me'da morfologik ko'rsatkichlar bo'yicha olingan ma'lumotlarning amaliyotga joriy qilinishi a'zo patologiyasini erta tashxislash, davolash va bashoratlashni rivojlantirishga yordam berdi.

Xulosa

Immunhistokimyoviy tadqiqotlar BCL2 markerining o'rtacha ekspressiyasini tasdiqladi, 6 oylik muddat bilan solishtirishda ekspressiya yuqori darajada, apoptoz jarayonlari shohlarda fundal bezlar chekkalarigacha kuchayishi va mukotsitlarda apoptoz jarayonlari kuchayishi tasdiqlaydi. CD68 markerining o'rtacha ekspressiyasi o'z membrana yuzasida gastroproteinlarni egallab olgan monotsitlar va to'qimali makrofaglarning katta miqdordagi ko'chishidan darak beradi. Natijada jarayonning uzoq davom etishi me'da shilliq qavatining hujayra tarkibining kamayishi va fundal bezlarning parenximatoz hujayralari katta qismining biriktiruvchi to'qima bilan o'sib ketishiga olib b oradi. Yuzaki-faol atrofik gastritning morfologik alomatlari morfologik va immunhistokimyoviy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharifova Sh.K., Kamalova M.I. Morphological Changes in the Stomach of Rats Exposed to Ethanol in the Postnatal Period // Jurnal biomeditsiny i praktiki. - Tashkent, 2022. - Tom 7, № 2. - S. 142-148. (14.00.00; № 24)
2. A.S.Ilyasov, Sh.K.Sharifova. Stroeniya i razvitiya jeludka u novorozhdennykh krysyat // Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. - Xiva, 2022. - № 7 (1). - S. 55-57. (03.00.00; № 12)
3. Ilyasov A.S., Sharifova Sh.K. Mikroskopicheskoe stroenie stenki jeludka krysa v periode pozdnego postnatalnogo ontogeneza // Tibbiyotda yangi kun. - Buxara, 2022. - № 9 (47). - S. 568-574. (14.00.00; № 22)



4. Sharifova Sh.K. Study of the Dynamics of the Development of Components of the Stomach Wall of Rats during Ontogenesis // Art of Medicine. International Medical Scientific Journal. - 2022. - Vol. 2, No. 3. - P. 241-249. (14.00.00; № 3)

5. Sh.K.Sharifova, A.S.Ilyasov. Modern Functional Diagnostics in the Study of the RAT Stomach // Miasto Przyszlosci. - 2022. - Volume 25. - P. 112-118 (Impact Factor - 9,2)